FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 27-sentabr | 254-11-165-Q/24 | Yozyovon tuman hokimligi

“Yozyovon” MFY A.Navoiy ko‘cha Tuman markaziy shifoxonasi hududiga “3.27–To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

Yozyovon tuman IIB YHXB tomonidan berilgan murojaatni o‘rganib, tumanning “Yozyovon” MFY, A.Navoiy ko‘cha Tuman markaziy shifoxonasi hududidan o‘tgan 200 metrlik avtomobil yo‘lida avtomobillar tartibsizligi vujudga kelib, fuqarolar xavfsizligiga jiddiy sabab bo‘layotganini inobatga olib, ushbu yo‘lda transport vositalari xarakat xavfsizligini hamda aholi havfsizligini ta’minlash, “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi qonunning 7, 20- moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunining 4, 7-moddalariga hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorigasoslanib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalari

QAROR QILAMAN:

1. Yozyovon tumani IIB YHXB tomonidan 2024-yil 4-iyul kuni berilgan aloqa xati inobatga olinsin.

2. Yozyovon tumani yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (O‘.Xaydarov) tuman IIB YHXB boshlig‘i (Y.Ibragimov)lar “Yozyovon” MFY A.Navoiy ko‘chasi hududidan o‘tgan 200 metrlik avtomobil yo‘lining A.Temur va Al Farg‘oniy ko‘chalarining A.Navoiy ko‘chasiga kirish qismiga belgilangan tartibda, transport vositalari xarakat xavfsizligi hamda aholi havfsizligini ta’minlash maqsadida “3.27–To‘xtash taqiqlangan” yo′l belgilarini o‘rnatsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (U.Ikromov)ga ushbu hududda harakatlanuvchi transport vositalarining mazkur yo‘l belgilariga qat’iy rioya qilinishi hamda harakat xavfsizligini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Xudoyqulov) hokimlik rasmiy veb sayti va “Markaziy Farg‘ona” gazetasida ushbu qarorni nashr etilishi va joylashtirilishini ta’minlansin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari D.Bekmirzaev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **D.T.Djalilov**